

Qatnashuvchilar:

Shabnam - 35 yoshda.

Oydin momo - 70-75 yoshlar atrofida.

Zamon Ashrafovich - 35 yoshda.

Dildora - Shabnamning qizi, 12-14 yoshlar atrofida.

Qodir - 35 yoshda

Qudrat qo'shni - 45-50 yoshlar atrofida.

Yo'l dosh - 45-50 yoshlar atrofida.

Irina Andreevna - ishbilarmon, 35-40 yoshlar atrofida.

Chori bobo - Qudratning otasi, 75-80 yoshlar atrofida.

Tohirjon - Shamnamning ukasi, 30 yoshlar atrofida

Yigitcha - 20-25 yoshlar atrofida.

### Birinchi Sahna

Moskva. Vokzal. Vokzal manzarasi - sahna tepasida ulkan osma soat, u-bu narsa sotiladigan ko'chma do'koncha, yo'lak chetida oqqayinlar qad rostlagan, yo'lakning ikki chetida ikkita o'rindiq. Uning yonida chiqindi quti. Vokzalga xos shovqin eshitiladi, allaqayerdag'i radio karnaydan allaqayerlargadir jo'nab ketayotgan poyezdlarning nechanchidir yo'lidan jilayotgani dispetcher qiz tomonidan rus tilida elon qilinmoqda.

Odmi, lekin adl qaddiga yarashiqli kiyingan, istarasi issiq, chehrasida o'ziga xos yorqinlik zohir, Shabnam o'rindiqda o'tirib, dastro'moli bilan qizargan, yoshti ko'zlarini artmoqda. O'rindiq yonida vokzaldan yo'lga tushgan (uyga qaytayotgan) yo'lovchiga xos u-bu narsalar - yelim xalta, tugun-to'shak yoki kichik jomadon va hokazo shunga o'xshash narsalar. Ayol yig'layapti. Shu payt uning eri Qodir paydo bo'ladi. Egnida so'nggi rusumdag'i futbolka, jinsi shim, oyog'iga esa krassovka ilib olgan, qora ko'zoynakni manglayiga oliftanamo qo'ndirgan. Turush-tutishi hech kimdan kam emas: kuchli, baquvvat. Erkak o'rindiq oldida biroz tik turib, g'ijinan bo'lib, go'yoki yerga tuflaydi, so'ng qo'l siltab ayloning yoniga o'tiradi. Ayol erkakka umidvor bo'lib qaraydi. Erkak qo'li bilan boshini changallab, ayolga g'amgin ko'z tashlaydi. So'ng jinsi shimi cho'ntagidan bir dasta pul olib ayoliga uzatadi.

Qodir: - Ma. OIB !

Shabnam: - (Qodirga angrayib qarab) - Besh yil!.. Besh yildan beri pul jo'natmagan odam endi beryapsizmi? Yo'q, bu pulni ololmayman, Xudo biladi, bu pulni qaysi yo'l bilan topayapsiz. Undan ko'ra birga ketsak yaxshi bo'lardi.

Qodir: - (Uff, tortib...) - Tushunsang-chi, aytdimu borolmayman... Ol. Mana bu pulni ol. Pulga halol yoki harom deb yozib qo'ymaydilar-ku.

Shabnam: - (Hafsalasizlik bilan xuddi o'ziga o'zi gapirgandek... Bir nuqtaga tikilib) Menga sizni pulingiz emas, o'zingiz keraksiz. Nega uyga borolmaysiz? Nega?

Qodir: - (O'rnidan turib ketadi) Yana nega deysan-a!. Axir kechadan beri qulog'ingga tanbur chertayapmanmi, ilojim yo'q. Ishimni tashlab ketolmayman, Shabnam.

Shabnam: - (Keskin qarab, kinoyali) Axir ish hamma joyda ham ko'p. Uyingizda ham ish yetarli.

Qodir: - (G'ijinib) Nima qilaman qishloqda. Men bu yerda topayotgan pulimni u yerda hech kim bermaydi.

Shabnam: - (U ham o'rnidan turadi... Eriga iltijoli qarab) Axir o'ttiz besh sotix tomorqamiz bor, otangizdan qolgan shu boqqa qarasak ham bir ro'zg'orga yetib ortadi-ku...

Qodir: - (Ijirganib) Tomorqa...

Shabnam: - (Bir nuqtaga tikilib, xuddi o'ziga o'zi gapirganday) Ha, tomorqa. Qodir aka, siz meni tushunmaydi deysizmi, men nima uchun begona yurtlarda yurganingiz sababini bilaman. Siz menga uylanib qishloqqa olib kelgach, oilamiz hech kimdan kam bo'lmasligini xohladingiz, oldimda o'zingizni gunohkor his qildingiz, ana shu hislar kasriga qoldik. Baxt, oila, sevgi degan tushunchalar boylik vasvasasi soyasida qolib ketdi.

Qodir: - (Xotiniga g'amgin tikilib) Sening aybing yo'q, men o'zim shu yo'lni tanladim.

Shabnam: - (Afsuslanib) Men sizdan hech narsa so'ramagan edim-ku.

Qodir: - (Chuqur tin olib) Ha, so'ramagan eding, biroq ota-onang bir qishloqi, yalangoqning ortidan ergashib ketding, deb sendan yuz o'girmaganda men shunday qilarmidim. Men ularga boylikmi, mana senlarga boylik deb ko'rsatmoqchi edim. Shu yo'lida topgan-tutganimni biznesga tikdim, lekin hayot men o'ylaganchalik yengil bo'lib chiqmadi.

Shabnam: - Men o'shanda siz bilan dunyonи narigi burchagiga qush ko'nmas, it o'tmas, azobu uqubatxonasiiga bo'lsa ham ergashib ketishga rozi edim. Axir men sizni sevaman.

Qodir: - (Bosh chayqab) Bas. Bas qil... Qishloqqa qaytaman, Shabnam, faqat vaqt kelganda qaytaman.

Shabnam: - (Titrab-qaltirab yana o'rindiqqa o'tirib oladi...) Bizning aybimiz nima? Orzularimiz shumidi? Siz bilan qishloq hayotini o'zgartiramiz, u yerda ham yaxshi yashash mumkinligini odamlarga isbotlay olamiz, deb o'ylagandik. Rejalarimiz bor edi.

Qodir: - (Xotinining yoniga kelib o'tiradi. So'ng u ham bir nuqtaga tikiladi, bir oz jimlik cho'kadi) Tushun, yoshlikdagi hoyu-havaslar o'tdi, iltimos, hozircha meni tinch qo'y.

Shabnam: - (Eriga angrayib qarab) Qachongacha bu yurishingiz davom etadi, qachongacha tinch qo'y, deysiz!

Qodir: - (O'rnidan shahd bilan turib ketadi. Shabnam ham turadi) Bilmadim, Shabnam, bilmadim.

Shabnam: - (Iltijoli holda) Qizingizning bo'yи cho'zilib qoldi. Faqat sizni so'rayapti. Besh yil bo'ldi. Biznes yo'lga qo'yilsa qo'yilardi-da, besh yildan beri sarsonsiz. O'sha o'ris ayolni ishonchli odamimisiz yoki?..

Qodir: - Shabnam, qo'y endi! Irina Andreevnaning ishonchli odamiman, u o'zimga restoran ochib bermoqchi.

Shabnam: - Qodir aka, o'ylab ko'ring... Axir u yoqda onangiz, qizingiz... Jon Qodir aka, qishloqqa qayting... Axir...

Qodir: - Axir aytdim-ku senga! Hozir ketolmayman.

Shabnam: - (Endi o'zini qo'lga olishga urinib...) Yo'lingizga termulaverib, onangizning ko'zi xiralashib qoldi. Bir ko'zi ko'rmayapti. Sho'rlik enaga achinaman. Devday o'g'li tirik bo'la turib, yer bilan bitta bo'lib yotgan kampirga achinaman... Lekin siz... na farzand, na onaga achinasiz... Siz aynib bo'lgan ekansiz. Besh yilda ko'zingiz ko'r, yuragingiz tosh bo'lib qopti... Qodir aka! Mayli onangizga ham o'zim qarayman, tirik yetim qizingizni ham o'zim boqaman.

Qodir: - Sen pushaymonsan-a, Shabnam? Men bilan turmush qurbaningga pushaymonsan, menga qara, sen yaxshisi oilangga qayt

...

Shabnam: - (Xo'rsinib) Taqdiri azal shu aslida... Men sizdan, qismatimdan bunchalar jabru sitam ko'raman demagandim... Koshki edi endi men ota-onam, jigargo'shalarimning oldiga borolsam. Yo'q. Endi men yo'limdan qaytmayman, siz bu yerda umringizni bekorga o'tkazayotganingizni sizga isbot qilaman.

### Ikkinci Sahna

Devor bilan o'rallan oddiy qishloq hovlisi. O'rtasida supa. Tandir-o'choq, oshxonasi. Xullas, batartib va saranjon hovli. Oydin momo hovlida u-bu narsalarga urinib yuribdi. Shu mahal qo'lida jomadon ko'tarib Shabnam kirib keladi. Kampir uni payqab shoshib qoladi. Shabnam tomonga bir-ikki qadam qo'yib, holsizlanadi. Beixtiyor o'tirib qoladi. Shabnam qo'lidagi jomadonni yerga qo'yib kampir yoqqa intiladi, uni qo'ltig'idan olib, turg'azmoqchi bo'ladi, kampir bazo'r Shabnamning qistovi hamda yordamida o'rnidan qo'zg'aladi. Shabnam inqillagan kampirni supaga suyab olib keladi va supaga o'tirishiga yordamlashadi.

Oydinmomo: - (Shabnamni quchib) Keldingmi bolajonim, keldingmi? Nima bo'ldi... Ha... Tushunarli. Kelmabdi-da...

Shabnam: - (Kampirning bu ahvoliga xavotir bilan qaraydi) Yo'q, ena! Keyin gaplashamiz, o'zingiz tuzukmisiz, qiynalib qolmadingizmi? Nevarangiz qani, ena, hali mashg'ulotdan qaytmadimi?

Momo: - Demak, kelmaydi de?! O'zim ham sezgandim... Endi nima qilamiz, qizim?

Shabnam: - Bilmasam, ena, boshim qotdi.

Momo: - Seni xor qildi u. Bu ham yetmaganday, men ham oyoq-qo'lingni bog'lab o'tiribman. O'ynab-kuladigan paytingda qora boshingga oq oraladi.

Shabnam: - Nega unday deysiz, ena! Sizdan sira ham yomonlik ko'rmadim.

Momo: - Menden bo'lmasa, men tug'ib o'stirgan boladan yomonlik ko'rding... Bu nomard o'g'lim shunday oilani bilmadi-ya... E, nodon-a, nodon.

Shabnam: - Qo'ying... Kuyinmang, ena.

Momo: (O'ychan. Ancha taraddudlanib) - Kuyinmay bo'larkanmi, qizim? Sendan roziman. Meni qo'y, o'z kunimni ko'rарman. Seni bu yerdarda beva- bechora qilib olib o'tirishga haqqim yo'q, qizim... Qizingning ham bo'yи cho'zilib qoldi... Shaharga, ota-onangning oldiga bor, bolam... Bizdan ko'rмаган mehrni ulardan ko'r, qizim...

Shabnam: (Titrab) - Ena, nima deyapsiz? Sizga og'irligim tushayaptimi, enajon, sizni tashlab ketolmayman .

Momo: (Uvvos tortib yig'laydi. Shabnam uning quchog'iga bosh qo'yadi) - Yo'q, qizim, yo'q... sizlarga mening og'irligim tushayapti, oyoqlaringizga tushov bo'ldim, qafas bo'ldim, bolam. Bu kunimdan o'lganim yaxshi, bolam! Elda bosh ko'tarib yurolmayman. Yolg'iz o'g'lini Xudo bexabar, bemehr qilib o'stirgan notavonman, bolam! Nevarasini tirik yetim, kelinini beva qilgan noshudman, bolam! Shabnam, sendan roziman... Bilaman, Qodir endi qaytmaydi. Yo'lidan adashdi bolam tushmagur. Oh, nomard bola-ya, nimalar kilding, boshimni xam, dunyomni g'am qilib ketding-a. Seni shu niyatda tuqqanmidim, shu niyatda katta qilganmidim, bolam.

Shabnam: (O'rnidan turib ketadi) - Jon ena, yig'lamang, tobingiz qochib qoladi.

Momo: (Jimib qoladi) - Qizim, nevaramni ehtiyyot qil! Sizlarni Xudo tashlab qo'ymaydi, bolam. Omin, Ollohu akbar. Boshing toshdan bo'lsin, tuproq olsang tillo bo'lsin, ena qizim.

Shabnam: - Enajon, qo'ying, yig'lamang! Ena, mana bu choyni ichib oling, ena, o'zingizni bosing.

Momo: - (Bir oz jim turib) Bolam... Bolam...

Shabnam: - Ena, manavini ichib oling, (Kampir jim, so'ng qo'l cho'zadi. Ammo qo'lini piyolaga emas boshqa tomonga uzatadi.

Shabnam hayron va qo'rquv bilan qaraydi. Momo ko'r bo'lib qolgan edi).

Momo: - (Shivirlab) Bolam...

Shabnam: - Enajon, sizga nima bo'ldi, ena...

Momo: - (Xomush pichirlaydi. Qo'li bilan havoni paypaslaydi) Bolam...

Shabnam: - (Qo'lidan piyolani tashlab yuboradi.) Enajon, meni qo'rqtamang. Ena, sizga nima bo'ldi?

Momo: - (Hamon karaxt, havoda qo'l cho'zib turibdi) Men jazoimni oldim, bolam.

### Uchinchi Sahna

Oydin momoning hovlisi. Eshik taqillab ochiladi. Qudrat kirib keladi. Kelin va kampir supada gaplashib o'tirishibdi. Qudrat ularga sirli qarab qo'yadi, so'ng tomoq qirib gap boshlaydi:

Qudrat: - Assalomu alaykum, Oydin momo, yaxshimisiz, damlikkinamisiz, dimog'ingiz chog'mi, suyak yengilmi, momo. Assalom, boybicha, siz ham durustginamisiz? Olis manzillardan shamollab keldingizmi, boybicha? O'ris og'aynilarimiz ham tinchmikan?

Kuyovto'ra-biznesto'ra qalay ekan, hozirgina sizni u yoqlardan kelganingizni eshitib, yugurib kelaverdim shamolday bo'lib... Har holda, Qodir biznes bizga ham salom degandirlar.

(Kampir bilan kelin jimib qoladi. Shabnam yerga qaraydi. Yer yorilsayu yerga kirib ketguday holatda...)

Momo: - (O'rnidan turishga urinadi va yostiqqa suyanib o'tiradi) Buncha chakaging timmaydi-ya, Qudrat! Xo'sh, nega kelding, menda gaping bormi?

Qudrat: - (Kinoyali jilmayib) Enamiz bizni gapga tuqqanda, momo!

Momo: - (Bir oz piching bilan ) Enang Turdixol kampir ham gapchi edi .

Qudrat: - (Shabnamning ketishini istamay, muddaoga o'tadi...) Men ketaman hozir. Shabnam boybicha, siz ham to'xtang! Yaxshi bo'ldi, ikkovingiz ham eshitung. Men bir ish yuzasidan kelgandim.

Momo: - (Hushyor tortib) Nima ish ekan u, Qudratboy?

Qudrat: - Keliningiz aytmadimi?

Shabnam: - Nimani aytaman? (So'ng dovdirab qoladi...)

Momo: - (Taajjublanib) Ochiqroq ayt, nima demoqchisan.

Qudrat: - (Tomoq qirib) Oydin momo! Men ertaga anavi joydan devor uraman, sim tortaman.

Shabnam: - Nima?

Momo: - Bu nima deganing?

Qudrat: - Shu deganim!

Shabnam: - Bekor aytibsiz!

Qudrat: - O'zingizni bilmaganga olmang! Biznesmen eringiz aytgandir?

Momo: - Hoy, ezmalanmay bo'lar gapdan gapir!

Qudrat: - (Ikkala qo'lini bir-biriga qarsillatib) Gapning bo'lari shu. Men tomorqangizni o'sha muttaham o'g'lingizdan sotib olganman! Mening u yerlarda yeb-ichganim qoldi xolos. Ertalabdan-kechgacha 5 yil qozonning tepasida turganim uchun bir tiyin ham to'lamadi, nomard.

Momo: - Bu tomorqa meniki, Shabnamniki, nevaramniki... Qodirning bunda haqi yo'q.

Qudrat: - (Endi bor ovozda baqirib ) Momo, nima qilasiz zakun so'rab, zakunchi ekansiz-ku... U nomard o'g'lingiz tomorqangizga qo'shib hatto sizni ham, nevarangizniyam, kelingizni ham allaqayerdagi o'ris xotinga sotib yuborishi ham mumkin edi.

Momo: - (Boshiga mushtlab) Voy bolam-a, voy bolam! Bu ko'rguliging ham bormidi!

Qudrat: - (Qo'l siltab) Bo'lди-da endi, buncha dunyoni boshingizga ko'tarasiz, momo.

Shabnam: - Sizda insof bormi? Sizda zig'irchalik odamgarchilik bormi? Qodirning o'chini bizdan olasizmi?

Qudrat: - Tilingizga erk bermang! Mayli, hech bo'lmasa 10 sotixini beringlar... Axir menga pul kerak, ro'zg'orim bor mening ham...

Momo: - (O'ziga kelib...) Qudrat bolam, bu joylar cholimdan qolgan, kimsan Sherdullo to'qsobo o'z o'g'li Azim Merganga koldirib ketgan... Bu nima degani bolam! Meni tiriklayin ko'mmoqchimisanlar.

Shabnam: - Shu 10 sotix o'rniغا pul bersak nima deysiz?

Qudrat: - (Hayrratlanib) Nima, nima? Sizlar pul berasizlarmi? (Qah-qah otib kuladi...) Yegani noni yo'q, itining otini marjon qo'yibdi degan maqol bor.

Shabnam: - (Endi ovozini balandlatib) Erkak yer bo'lgach, hech bo'lmasa ayol osmon bo'lishi kerak!

Qudrat: - O'qigan-da, o'qigan... Hemiri bo'lmasa ham gap bilan osmonni ag'daraman deydi. (Yana qah-qah otib kuladi) Otangni ko'rdirim Ahmadi Choriq, enangni ko'rdirim tovoni yoriq, degan gap bor elda. Yo biznes to'ra xudo insof berib, belingizni baquvvat qilib jo'natdimi?

Shabnam: - (Qudratga g'azablanib) Bas qiling, keting uydan! Pulingizni olasiz...

Qudrat: - (Chiranib qo'lini paxsa qilib) Mayli, yana kelaman! 10 sotixga 10 million tayyorlab qo'ying. Tushundingizmi?

Shabnam: - Xavotir olmang, pul bo'ladi!..

Qudrat: - (Kinoya bilan) Etik kiymasam ham etagim yopiq demoqchisiz-da... (Kuladi).

Momo: - Hoy bola, qani jo'na-chi!

Qudrat: - Siz aralashmang... (Qo'l siltaydi. Chiqib ketadi... Og'ir musiqa chalinadi, kampir yig'laydi... Shabnam supa chetiga omonat o'tirib o'yga toladi...)

Momo: - (Xo'rsinib) 10 million deydimi?

Shabnam: - (Ohista) Ha, ena....

Shu payt sahnaga Shabnamning qizi Dildora kirib keladi. Yelkasida osma xalta (sport kiyimlari bor...) Yalangyoq. Oqsab kirib kelyapti. Qo'lida poyabzali - bir juft kida! Oyog'i barmoqlari orasidan qon sizgan, qontalash. Zo'rg'a, ingrab oyoq bosayapti.

Dildoraning bu holatini ko'rib Shabnam o'rnidan turib ketadi. Kampir ham voy-voylab o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ladi... Shabnam qizi tomon yuradi. Dildora oqsab onasi tomon kelayapti.

Shabnam: - (Qizi tomonga yugurgilab) Senga nima bo'ldi, bolajonim? Nega oqsayapsan, qizim?

Dildora: - (Zo'rg'a) Kida oyog'imga sig'mayapti...

Shabnam: - (Qizini quchib) Voy bolam-a... Avvaldan siqib yurgan bo'lsa, aytmaysanmi, shuni kattarog'ini olib berardim-ku.

Dildora: - (Yotgan joyida) Oyi, do'konda ko'rdirim, qimmat ekan.

Momo: - Hoy bolam-a! Senga shu zormanda poyabzalni olib berolmasmidik. Shabnam, bor, narigi uyga kirib taxmondagini olib kel!

Shabnam uyga kirib o'ralgan tugunni olib chiqadi.

Shabnam: - Ena, bu nima?

Momo: - O'limlikka yiqqanim. Hammasini ol!

Shabnam: - Yo'q, ena, men bu pulni ololmayman... Axir...

Momo: - (Yuzida qatiyatli tabassum bilan qo'lini sahnaga ishora qilib) Xudoga shukur, qo'ni-qo'shni, mahala-ko'y bor! El-yurt bor! O'ligim ko'chada qolmaydi, bolam, meni norozi qilmayin desang, shu pulni olib bugunoq qizingga oyoqkiyim, ust-bosh, o'zingga ham nima kerak bo'lsa sotib ol, bolam...

Shabnam: - (Yig'lab kampirning quchog'iga otiladi) Enajon. Enajonim. Hali ko'rasiz, bu kunlar ham o'tadi ena...Sizni yaxshi ko'raman, enajon...

Momo: - (Sukut saqlab) Menga qara, kel shu tomorqamizning 10 sotixini Qudrat mijg'ovga berib yuboraylik... Bo'lmasa Qudratdan qutololmaymiz...

Shabnam: - (Qatiyatli tarzda) Yo'q, enajon, buning iloji yo'q! Bir qarich ham yerni bermaymiz!

Momo: - Ilojimiz yo'q, bolam!

Shabnam: - (Yana o'sha shahd bilan) Bor, ena, bor ilojimiz... Bu yog'ini menga qo'yib bering.

Momo: - Nima qilmoqchisan?

Shabnam: - Rejalarim bor, ena... Gilam to'qish seksi quraman... Boshqa yo'limiz yo'q... Tadbirkorlik bilan shug'ullanaman. Axir bekorga institutda 5 yil o'qimaganman-ku!

Momo: - (O'ychan) Gilam to'qish seksi dedingmi?

Shabnam: - Ha!

Momo: - (Shabnamning yoniga keladi. Uni sahna chetiga, yani hovli adog'iga olib keladi. Guyoki hovli adog'idagi omborxonani ishora qilib ko'rsatadi) Bolam, anavu omborxonaning ichida nima borligini bilasan-a?

Shabnam: - (Xijolatli holatda) Yo'q, enajon, kelin bo'lib tushganidan beri bir marta ochgan edingiz. Allakanday ashqol-dashqollar chang bosib, is bosib yotibdi.

Momo: - (Kulimsiraydi) To'g'ri, ashqol- dashqollar! Ular To'qsoba bobomizga bobosidan qolgan uskunalar, bolam.

Shabnam: - Ular shunchalik eskimi?

Momo: - (Xotirjam) Ha, ularni katta bobomiz Chin yurtidan, Xitoydan olib kelgan, avloddan-avlodga qolib kelyapti. Aslida men rahmatli cholim Azim mengan bilan aka-ukaning bolalari edik. U zamonalarda qizlarni qarindosh-parindosh deb o'tirmay o'zinikiga erga berib yuboraverishar edi. Xullas, bu qadimdan qolgan uskuna!

Shabnam: - Bu uskunalar nimaga kerak bo'lган, ena?

Momo: - Ey, bolam-e! Otamning aytishicha, bu dastgoh yetti iqlimni hayratga solgan judayam chiroyli matolar to'qir ekan.

Bobolarimiz shuning orqasidagi boy bo'lib ketishgan ekan. Buyog'i Buxoro, bu yog'i Afg'oniston, bu yog'i to Xitoyga mashhur bo'lган chiroyli matolar to'qilgan... Ikki asrki, bu ashqol-dashqollar avlodimizga ardoqli narsa. Omborxonani bo'shatib, ko'chaga olib chiqib tashlay desam ko'zim qiymaydi. Bobolarimning ruhidan qo'rqaman.

Shabnam: - (Bir oz hayajonda) Enajon, siz uskunani ishlatishganini ko'rganmisiz?

Momo: - Ha, bir marta. Huv hovli adog'idagi so'ri yoniga otam rahmatli amakim bilan o'rnatib ishlatishgan edi. Men unda 6-7 yoshlar chamasidagi qizaloq edim. So'ng sho'rodan qo'rqib, yana og'ilxonaga solib, somon ostiga ko'mib tashlashdi.

Shabnam: - Nima uchunB ?

Momo: - Bobolarimiz boy bo'lGANI uchun quloi qilinib Sibirga surgun qilishgan edilar. Otalarimizni katag'onda otishdi. Erimga ham, menga ham dushmanning bolasini deb qarashardi. O'sha zamonlarda falonchi uyida fabrika ohibdi desa, sho'roning kuni tug'ardi-da. Oborib qamardi yoki otardi. G'alati og'ir zamonlar o'tdi-da, bolam.

Shabnam: - Mana shu uskunalarni olib ishlatsam maylimi, enajon?

Momo: - Qo'y, qizim, qo'rqaman.

Shabnam: - Qo'rqmang, ena! U zamonlar o'tib ketdi.

### To'rtinchı Sahna

Sport maktabining mashg'ulot xonalaridan biri. Mashg'ulot o'tkazish uchun sport anjomlari joylashtirilgan keng va yorug' xona.

Shabnam ana shu mashg'ulotxonaning polini yuvib artayapti. Yelim chelakda suvga pol lattani botirib pol artayotgan onasiga Dildora yordamlashayapti. U ham xonaning bir chetidagi sport anjomlari changini artadi, so'ng anjomlar yonidagi chelakni va shvabrani olib xonaning bir burchida pol artishga tushadi. Shabnam qizga qarab qo'yadi. So'ng ishdan to'xtaydi, qiziga biroz o'kinch, biroz qoniqish bilan razm soladi. Sidqidildan berilib ishlayotgan qizga boqqan nigohida o'kinch yoshlari qalqadi:

Shabnam: - Qo'y, bolam, ust-boshingni to'g'rla. Dushga tushib sport kiyimingni kiyib ol.

Dildora: - (Oyisiga mehribonlik bilan) Bir o'zingizga ish og'irlilik qilmaydimi?

Shabnam: - (Mehri iyib) Aytganimni qil, bolam. Oyingga bu ishlar nima bo'pti, sen sog'-omon bo'lsang bas, men ishlab charchamayman.

Dildora: - (Pol lattani va chelakni, shvabrani chetga qo'yib, onasi yoniga keladi. Uni quchib yuzidan o'padi) Mayli, oyijon, mashg'ulot tugashi bilan tezda uyga boraman.

Shabnam: - (Qizini manglayidan o'pib) Oyog'ing og'risa ustozingdan javob olib uyga qaytaver!

Dildora: - Xavotir olmang, oyijon!

Dildora chiqib ketadi. Shabnam xona polini artib-sidirishga tushadi. Shu payt nimadir taraqlab ketadi. Xonaga sport maktabining direktori Yo'l'dosh kirib keladi. U xalati bari ochilib, tizzasi, bo'liq sonlari ko'rinish turgan holatda pol artayotgan Shabnamning sog'lom va adl qad-qomatiga suqlanib qarab turadi. Shabnam o'z ishi bilan andarmon bo'lib Yo'l'doshning kirib kelganini sezmaydi. Yo'l'dosh unga yaqinlashadi. Yana bir oz Shabnamga mahliyo bo'lib termulib turadi. So'ng tomoq qirib yo'taladi. Shabnam yonida qaqqayib turgan Yo'l'doshni tuyqus ko'rib cho'chib tushadi, o'nidan turib ketadi, zdulik bilan xalati yoqasi va tugmalarini o'tqazadi. Xalati barini yopadi, ust-boshini tartibga soladi. Yo'l'doshning kirib kelganidan xijolat chekadi.

Yo'l'dosh: (Guyoki beparvo) Assalomu alaykum, hormang! Charchamayapsizmi? Aytmaysiz ham, yordamlashib yuborardim?

Shabnam: - (Uning bu mulozamatini samimi deb bilgan holatda) Rahmat. Shundog'am menga katta yordam berdingiz. Baraka toping, Yo'l'dosh aka, siz borakansiz, ish ham topildi.

Yo'l'dosh: - (Endi g'ururlanib, biroz kerilib) Nima deyapsiz, Shabnam! Men sizga hali hech qanaqa yordam bermadim?

Shabnam: - Rahmat, shuning o'zi yetadi menga.

Yo'l'dosh: - (Qo'llarini yoyib) Yo'q, yetmaydi... (Bir oz cho'zibroq) Yetmaydi... Yetmaydi. Hali ko'rasiz, yaxshi bo'ladi, qizingizni ustozlari zo'r deyishyapti. Kelajagi bor deyishyapti. Shunday ekan, qizingizga nima yordam bo'lsa qilamiz.

Shabnam: - Umringizdan baraka toping.

Yo'l'dosh: - (Taltayib) Qo'ysangiz-chi, yaxshilik yerda qolmaydi deydilar, Shabnamxon. Xullas, yana bir yangilik bor.

Shabnam: - (Hayratlanib) Qanaqa yangilik?

Yo'l'dosh: - (Ko'rsatkich barmog'ini havoga niqtab) Qizingiz Dildorani viloyatga musobaqaga yuborayapman. Kecha topshiriq berdim, barcha hujjatlar, sarf-xarajatlar tayyor. Ustozlar endi jiddiy shug'ullanishadi.

Shabnam: - (Shoshib qolib minnatdorchiligini yashirolmay) Rahmat sizga, Yo'l'dosh aka. Hayotda sizday yaxshi odamlar bor! Xudo xohlasa bu yaxshililingizni qaytaralim, bizdan qaytmasa Xudadan qaytsin!

Yo'l'dosh: - (Kulimsirab) Shabnamxon, mening viloyatda ham yaxshi tanishlarim bor. Ularga ham tayinlab qo'ydim. Xullas, qizingiz Dildora osobiy nazoratda.

Shabnam: - Umringizdan baraka toping!

Yo'l'dosh: - Xo'sh, Shabnamxon, viloyatda ishlaydigan o'sha tanishlarimdan biri ertaga mehmonga kelayapti. Toqqa chiqmoqchimiz, bir dam olib kelaylik deydi. Xo'sh... Shunga sizni taklif etsam, mazza qilib, tog'havosi, nima deysiz?

Shabnam: - (Hushyor tortib) Men borolmayman... Uyda ishim ko'p.

Yo'l'dosh: - (Endi dadillanib) Ey, Shabnamxon, ish qachon tamom bo'libdi, ertaga yakshanba-ku! Siz, men, haligi mehmonimiz. Qo'rqmang, yana bir ayol ham bor. Zakompaniya-da.

Shabnam: - (Endi uni niyatini fahmlab) Zakompaniya deng. Yani ulfatchilik.

Yo'l'dosh: - O'l'mang, Shabnamxon, topdingiz.

Shabnam: - (Qatiy) Men borolmayman.

Yo'l'dosh: - (Endi biroz pastga tushib, shalvirab) Axir, Shabnamxon, yomon bir narsani o'ylamang, tog'da dam olsak nimasi...

Shabnam: - (Uning so'zini bo'lib) Men bunday qilolmayman.

Yo'l'dosh: - (Shabnamga yaqin kelib) Axir hali tanishim sizga yordam beradi. Men unga vada berdim.

Shabnam: - (Qahr bilan jilmayib) Meni toqqa olib chiqib beraman deb vada berdingizmi?

Yo'l'dosh: - (Endi u ham g'azabi toshib) Axir u katta odam, men sizga yordam berdim, yana yordam beraman.

Shabnam: - (Afsus bilan bosh chayqab) Demak, odamgarchilik orsizlik evaziga qilinibdi-da.

Yo'l'dosh: - (Shabnamga suqlanib termulib, uning qo'lidan ushlaydi. O'ziga tortmoqchi bo'ladi) Shabnam, yo'q dema, jonim.

To'g'risini aytsam, men seni yaxshi ko'raman.

Shabnam: - (Undan qutulmoqchi bo'ladi) Qo'yvoring... Qo'yvor, qo'yvor, hayvon.

Yo'ldosh: - (Uni bag'rige olib,) Shabnam, men oldindan seni yaxshi ko'raman, istagan narsangni muhayyo qilaman, meniki bo'l, Shabnam.

Shabnam: - (Uning qo'lini tishlab oladi. Yo'ldosh jon holatda o'tirib qoladi. Shabnam xonadagi yelim chelakni olib Yo'ldoshning boshiga soladi... Shabnam uvvos solib yig'lab yuboradi) Iflos... Maraz! Sen iflosni Xudoga soldim, ishing boshingdan qolsin! Ma, ol, ishing bilan qo'shmozor bo'l. (U shunday deb yonidagi shvabra va pol lattani ham Yo'ldoshga qarata otib yuboradi. Shabnam yig'lab sahnadan chiqib ketadi).

### Sahna

Oydin momoning hovlisi... Shabnam sport maktabidan aftodahol qiyofada hovliga kirib keladi. Supada o'tirgan so'qir qaynonasi Oydin momo jun titayapti. U kimmadir kirib kelganini sezib jim qoladi, qo'llari jun titishdan to'xtaydi. Shabnam ham kampirga ezg'in qiyofada qarab joyida to'xtab qoladi. So'ng ovozini chiqarmay ezilib yig'lay boshlaydi. Kampir hamon Shabnam tomonga tosh qotib qarab turibdi. Hech narsani ko'rmayapti.

Momo: - (Ohista) Kim u? Kim keldi? (Shabnam hech narsa demay, yana yig'layveradi). Kimsan?

Shabnam: - (O'rnidan turib yig'laganini sezdirmaslikka urinib...) Men... Men! Men, ena!

Momo: - (Momo taajjubli ohangda) Shabnam?

Shabnam: - (Kampir tomonga ohista yurib) Ha, enajon, menman.

Momo: - Nega yig'layapsan, bolam?

Shabnam: - (Kampirga tikilib qarab qoladi... So'ng kampirga tomon otilib yig'lab yuboradi) Ena, enajon! Charchab ketdim, enajon. (U kampirning tizzasiga bosh qo'yib yig'laydi. O'ksib-o'ksib yig'laydi. Kampir nimadir yuz bergenini sezib boshini silaydi... Uni ovutmoqchi bo'ladi...)

Momo: - O'zingni qo'lga ol, bolam, o'zingni qo'lga ol! Bilaman, qiyinalib ketding, oson emas, yolg'izsan.

Shabnam: - Bankdan kredit olish ham qiyin ekan, hamma joyda to'siq. Qayerga borsang qo'lingga qarashadi, nimadir kutishadi.

Momo: - Xor bo'l sang ham xas bo'lma, bolam! Bizga ham Xudoning yorug' kuni bordir, bolam! Hali bu kunlarni ko'rмагандай bo'lib ketamiz.

Shabnam: - Shu kunlar kelarmikan, enajon?

Momo: - Keladi! Albatta keladi, bolam. Faqat sen astoydil ishon. Ishonsang keladi. Nur soyada qolmaydi, bolam.

Shu mahal eshikning taraq-turuq qilib ochilib yopilgani eshitiladi. Hovliga Dildora kirib keladi. U ham yig'lagan. Tushkun alfozda. Horg'in qadam tashlaydi. Supa tomon yuradi.

Dildora: - (Ezg'in holda) Assalomu alaykum, momojon! Assalomu alaykum, oyijon!

Momo: - (sergak tortib) Va alaykum assalom, ena qizim!

Shabnam: (Qiziga o'kinib uzoq termulib, bazo'r) - Nima bo'lidi? Nega yig'layapsan?

Dildora: - (Uf tortib, so'ng ko'z yoshini artolmay) Bormasakanman.

Momo: - (Sergak) Qayooqqa?

Shabnam: - Viloyatgami?

Dildora: - (Bosh egib) ...

Shabnam: - Bilardim, bolam, shunday bo'lishini bilardim. Ena, nevarangiz viloyat musobaqasiga borolmaydigan bo'ldi.

Momo: - Nima uchun?

Dildora: - Kecha borasan deyishuvdi. Bugun bormaysan deyishdi. Oyi, endi nima bo'ladi?

Shabnam: - (Qizining yoniga borib uning boshidan quchadi) Hammasi yaxshi bo'ladi. Kelasi haftadan boshlab tuman markazida internatda o'qisan, o'sha yodqa mashg'ulotga qatnashasan!

Sahna qorong'ulashadi.

### Beshinch Sahna

Oydin momoning hovlisi. Shabnam u-bu narsaga urinib, uy yumushlarini bajarayapti. Shu mahal hovliga bir yigit kirib keladi.

Yigit ancha o'ziga to'q va ruhi tetik, yaxshi kiyangan. Boy-badavlatligi sezilib turibdi.

Yigit: - (Achinish qiyofasida) Opa!

Shabnam: - (Ilkis tislani) Tohirjon, Tohirjon! Ukajonim!

Ular bir-biriga qarab turishadi. Shabnam yugurib kelib, ukasining yuz- ko'zidan o'padi. Ukasi uni bag'rige oladi. So'ng ukasi uni bag'rigan bo'shatib, biroz norozi qiyofada yerga qaraydi. U yoq-bu yoqqa alanglaydi.

Tohirjon: - (Yerdan ko'z uzmaydi. So'ng supada o'z kuyicha nimalarnidir qilib o'tirgan kampirga achinib qaraydi) Men sizni uyga olib ketgani keldim... Hammasidan xabarim bor. U baribir qaytmaydi. Nima keragi bor o'zingizni aldab yashashning?

Shabnam: - (Ukasiga mehr bilan tikilib) Tohirjon, biz hech qachon sizlashib gaplashmaganmiz-ku! Siz deb gapisang begonaga o'xshab qolayapsan...

Tohirjon: - (Opasiga qarab yig'lab yuboradi. Quchog'ini ochib, yana opasi yoniga kelib uni quchadi). Opa-opajonim! Yur uyg'a! Bu yerlarda seni qoldirib ketolmayman! Yolg'iz opamsan, yolg'iz ukangman!

Shabnam: - (Ukasiga bag'ridan chiqib uning yuziga termuladi) - Aytaver dilingdagini, ukajon! Seni xoru zor tashlab ketolmayman demoqchi bo'lding-a?

Tohirjon: - Opa! Hali ham ko'zing ochilmadimi? O'sha nomardni deb umringni xazon qilding-a! Yo'q! Yo'q, men sizlarni olib ketaman. Jiyanimga ham o'zim yordamlashman. Firmamga ishga joyleyman. Axir sen yaxshi iqtisodchisan, senday mutaxassis menga kerak. Hamma narsang yetarli bo'ladi, opa! Biz bilan turmayman desang, alohida uy olib beraman.

Shabnam: - Men hech kayerga ketmayman... Hech bo'lmasa sen meni tushun, Tohirjon!

Tohirjon: - Umuman qaysarliging qolmabdi.

Shabnam: - (Lablarini tishlab, ko'ziga yosh olib) Uka... Dadam... Oyim...

Tohirjon: - Opa, ular allaqachon seni kechirishgan... Dadam... Dadam... opangni olib kel dedilar...

Shabnam: - Tohirjon, ukajonim, yolg'on gapirma! Dadam hech qachon bunday demaydilar. Men sizlarday bo'lomadim. Boshqa yo'lni tanladim.

Tohirjon: - Sen ko'ra-bila turib o'zingni o'tga tashlading. Anovingga ishonding!

Shabnam: - Men o'z hayotimni o'zim barpo etmoqchi edim. O'z oilamni o'zim tiklasam devdim.

Tohirjon: - Yo'q. Sen o'z hayotingni barpo etmading, barbob kilding, opa.

Shu payt hovli eshigi taraq-turuq qilib ochilib Qudrat kirib keladi.

Qudrat: - Assalomu alaykum, jamaa! Oh-hov, zo'r-ku! (Tohirga qarab) Bu deyman tashqarida Jeebb (Jip demoqchi) mashinasi turibdi. Chatoqsiz, boybicha, chatoqsiz! Xo'sh, demak (U Tohirga razm solib, uni aylanib o'tadi) Xo'sh, pul tayyormi? Vadaga vafo deb kelaverdim...

Tohir: - (Ijirg'anib Qudratga qaraydi... So'ng opasiga qarab) Kim bu? Nima deb valdirayapti?

Qudrat: - (Kinoyali jilmayib) Biz valdiramaymiz.

Shabnam: - (Yerga qarab) Bu haligi qo'shnimiz....

Qudrat: - (Kinoya bilan) Ismimiz Qudrat. O'zлari kim bo'ladilar?

Tohirjon: - Ishingiz bo'lmasin.

Qudrat: - (Bosh chayqab) Hay, hay, kattajon! Uzr. Mayli, ishimiz bo'lmasa, bo'lmaabdi-da. Boybichaning haligi biznesto'ra eri tomorqasini sotgan. Shuning pulini so'rab keldim.

Tohirjon: - Ablah!

Qudrat: - Kim ablal? Menmi yo anavi Russiyadagi biznesto'rami?

Tohirjon: - Ikkoving ham!

Qudrat: - Hoy-hoy, biz bu yerga haqorat eshitish uchun kelmadik. Haqqimizni talab qilayapmiz, xaqqimizni, Jebbingizning baloniga qurban bo'lay!

Shabnam: - Tohirjon, sen aralashma. Mayli, yer sizniki, sim tortasizmi, devor urasizmi, xohishingiz!

Tohirjon: - Senga qancha pul kerak?

Qudrat: - (Jonlanib) O'n million!

Toxirjon: - Yaxshi, yur orqamdan! (Uni ergashtirib chiqib ketadi)

Shu paytgacha go'yoki hech narsani eshitmagan kabi supada o'z ishi bilan andarmon bo'lib o'tirgan Oydin momo tilga kiradi:

Momo: - Bolam, ukang keldimi?

Shabnam: - Ha, ena! Ukam keldi.

Momo: - Obketaman deyaptimi? Yaxshi bola ekan! Birga ketsang yaxshi bo'lardi, bolam... Sen meni deb bunchalar azoblanma!

Uyingga, ota-onang oldiga qaytsang yaxshi bo'lardi, bolam.

Shabnam: - (Og'rinib) Menga boshqa bunday demang ,ena! Hech bo'lmasa Siz azoblamang, ena. (Shabnam sahna o'rtasida yig'lab yuboradi...)

Shu mahal Qudrat yugurib keladi-da, Shabnamga tazim qilib deydi:

Qudrat: - (Tazim bilan) Qoyil, boybicha! Hal bo'ldi. Ko'kidan.

Qudrat irg'ishlab sahnadan chiqib ketadi. Sahnaga Tohirjon kiradi. Shabnam o'rnidan turib ukasiga holsizlangan ovozda:

Shabnam: - Rahmat, ukajon! Bir kuni qaytaraman!

Tohirjon: - Qo'ysang-chi, opa! Demak, shu yerda...

Shabnam: - Ha, Tohirjon! Men mana shu yerda o'z kunimni ko'raman...

Ular bir-biriga termulib turishadi.

Tohirjon: - (Opasining boshini silab) Sendan xabar olib tursam maylimi?

Shabnam: - (Yig'lab) Mayli, Tohirjon, mayli.

Tohirjon: - Bo'pti, kelasi oy kelaman.

Shabnam: - Rahmat, ukajon.

Tohirjon opasi bilan xayrashib chiqib ketadi. Shabnam sahna o'rtasida yelkalari silkinib yig'laydi. Bir nuqtaga tikilib qoladi.

### Oltinchi Sahna

Tuman hokimining qabulxonasi. Stol-stul. Yumshoq o'rindiq. O'rindiqda stolga ko'ksini tirab o'tirib kompCHyuterda nimalarnidir yozayotgan sipo va rasmiy kiyungan, maqsad-muddaosi rahbarlik shohsupasi-yu, uning havosidan to'yib bahramand bo'lish uchun jon-jahdi bilan tirmashgan yosh yigitchalardan biri, yani tuman hokimining yordamchisi yonidagi stolda qator terib qo'yilgan, biri qo'yib biri tinimsiz jiringlayotgan besh-oltita telefonga uzlusiz javob berayapti. Yonidagi kichik stoldagi o'sha besh-oltita telefon navbatma-navbat tinimsiz jiringlaydi.

Yigitcha: - (Qizil telefon go'shagiga) Aytdim-ku, bandlar. Bilmadim. Yo'q, men bilmayman. Muovinga uchrashib ko'ring.

Yana telefon jiringlaydi. Bu galgisi qorasи.

Yigitcha: - (Qora telefon qo'lida.) Ha, bandlar. Ertaga keling.

Yana telefon jiringladi: (Bu galgisi sariq telefon) - Assalomu alaykum, To'ra Botirovich! Hozir ulayman, To'ra Botirovich! (Hokim bilan bog'laydi) - Allo, Zamon Ashrafovich siz bilan To'ra Botirovich gaplashmoqchilar, ulaymi? Xo'p bo'ladi! Allo, To'ra Botirovich, xo'jayin aloqadalar, gaplapping! (So'ng tabassum bilan qo'llarini bir-biriga ishqab o'tiradi. Yana telefon jiringlaydi.)

Yigitcha: - (Xo'mrayib) - Yo'qlar! Yo'q, ishdamaslar! (Taraqlatib trubkani qo'yadi. Telefon yana jiringlaydi.)

Yigitcha: - (Shartta qora telefonni qo'liga olib) - Allo! Ey sizmisiz? Qayerda yuribsiz? Xo'jayin so'radilar. Shamolday uchib keling! (Yana telefon jiringlaydi. Bu galgisi qizil telefon) U kishi bandlar! Band, vassalom! Ertaga telefon qilib ko'ring!

So'ng Shabnamga qaraydi

Yigitcha: - Opa, sizga nima kerak?

Shabnam: - (O'rnidan turib, biroz noqulay holatda) Menga... hokim kerak edilar.

Yigitcha: - (Miyig'ida kulib, mensimay) Nima masalada?

Shabnam: - Kredit masalasida!

Yigitcha: - (Beparvo) Unday bo'lsa, bankka boring! Kreditni bank hal qiladi!

Shabnam: - (Endi o'ng'aysize lanib) To'g'ri. Lekin...

Yigitcha: - Lekin-pekini yo'q. Hokim sizni qabul qilolmaydi. Bugun kabul kuni emas. Sizning masalangiz bevosita hokimga taalluqli emas. Tegishli idoralarda yechiladi.

Shabnam: - Tegishli idoralarda hal qilib berishmaganliklari uchun ham bu yerga keldim.

Yigitcha: - Kutishingizga to'g'ri keladi.

Shabnam: - Bir kun ham, bir soat ham kutolmayman. Sharoit shuni taqozo etayapti.

Shu vaqt kabinet eshigi ochilib, qabulxonaga Zamon Ashrafovich kirib keladi.

Shabnam: - (Shoshib) - Assalomu alaykum, Zamon Ashrafovich! Men sizning qabulingizga kelgandim. Men Shabnam Mardonovaman. Kasbim iqtisodchi. Biznes rejalarim bor edi. Yarim yildan buyon bu masalani tegishli idoralarda hal qilib berishmayapti. Iltimos, mana shularni bir ko'rib chiqsangiz. Menga yordam bersangiz.

Zamon Ashrafovich: - Qani, menga bering-chi. Bilasizmi, Shabnam, men ham iqtisodchiman. Bugun kechqurun tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi bo'yicha yig'ilishimiz bor edi. Siz ham keling. Shu yerda fikrlashamiz.

Shabnam: - Rahmat sizga, Zamon Ashrafovich!

Zamon Ashrafovich: - Sizga rahmat, Shabnam! Rejalar tuzib, qishloq sharoitini yaxshilab, tuman iqtisodiga hissa qo'shaman deb turibsiz. Buning uchun sizdan minnatdor bo'lisl kerak. Bugun kechqurun yig'ilishda ko'rishamiz.

### Yetinchi Sahna

Tuman hokimi qabulxonasi yoki shunga o'xshash xona. Hokim bankir, moliyachi, o'z o'rinnbosari bilan majlis o'tkazayapti.

Shabnam ham shu yerda.

Zamon Ashrafovich: - (tuman hokimi o'rinnbosariga qarab) Siz Mardonova Shabnamning ish rejasidan xabardormisiz?

Hokim o'rinnbosari: - Yo'q.

Zamon Ashrafovich: - (Bankirga qarab kinoya bilan) Biroq manavi janob xabardor. Olti oydan beri bo'lajak tadbirkor bu kishining idorasiga qatnayiverib, umidini uzib bo'lgan. Shundaymi?

Bankir: - Men... Men... Haligi

Zamon Ashrafovich: - Dovdiramang, qachongacha ko'rib chiqasizlar? Mamlakatimizga to'siq bo'layotgan sansolarlikka chek qo'yilayotgan bir paytda tadbirkor murojaatini ko'rib chiqish shunchalik qiyinmi? Odamda insof bo'lishi kerak. Ishni eplay olmasangiz topshiring. Odamlarni sarson qilish, ularga nisbatan xiyonat, kerak bo'lسا jinoyat. Shuni bilasizmi? Qani, Mardonova, biznes rejangiz bilan bizlarni tanishtiring.

Shabnam: - Zamon Ashrafovich! Sport maktabi yonidagi jarlikka ko'zingiz tushgandir... Qishloqdoshlarimiz kuzda irib-chirib yotgan sabzavotlarni tonnalab ana shu jarlikka olib borib to'kishadi. Chunki Xudoga shukur, bizda mo'l-ko'lchilik. Mahsulot ko'p bo'lгach, tuman miqyosidagi bozorda uni sotishning iloji yo'q. Shunday jannati yerimizning mahsulotlarini isrof qilsak, uvoli tutmasmikan. Axir shu mahsulotlarni qayta ishlaydigan zavod qurish mumkin-ku! Bundan tashqari bog'larimizdan chiqayotgan mevalarimiz ham shu ahvolda.

Zamon Ashrafovich: - Davom eting, xo'sh ...

Shabnam: - Qishloq adog'ida вЂњOqtepabЂ degan tepalik bor. Atrofi povonsiz uzumzor... Tepalik sati 2-3 hektar keladi. Tayyor joy, ana shu tepalik sathini bir oz tekislasak kifoya! Bog'dan chiqadigan uzumlarni yig'ib yoyib chiqsak, tappa-tayyor oftobi mayiz! Hattoki, tepalik yonida mayiz qadoqlash sexi qurib qo'ysak ham bo'ladi. Bekor yotgan joydan unumli foydalansak yaxshi-ku...

Zamon Ashrafovich: - Demak siz poliz mahsulotlarini va meva-chevalarni qayta ishlab konservatsiya qiladigan kichik zavod qurishni taklif qilayapsiz, shundaymi?

Shabnam: - Ha.

Zamon Ashrafovich: - Yaxshi, Shabnam, yaxshi, qani, davom eting.

Shabnam: - Qishloq adog'ida uzunligi 30 metr, eni 15 metr keladigan omborxona nurab, to'kilib yotibdi. Bir paytlar mineral o'g'itlar saqlanadigan omborxona bo'lgan. Ana shu omborxonani tamirlatib, mato to'qish sexiga aylantsak degandim. To'qiydigan uskunalarini o'rnatib chiqamiz. Men hisoblab chiqdim. Omborxona ichida bemalol 5 ta uskuna joylashadi. Bu uskunalar deyarli hamma xonadonda bor. Uni qo'lда yasasak ham bo'ladi. Demak, 30-35 nafar xotin-qiz doimiy ish bilan taminlanadi. Mato uchun kerak bo'ladiqan xom-ashyo, ipakni mahalliy sharoitda yetishtirsa bo'ladi. Qadim momolarimizdan qolgan bu matolarning xorijda ham bozori chaqqon.

Zamon Ashrafovich: - Xo'sh, gapingiz tugadimi? Sizlar nima deysizlar?

Hokim o'rinnbosari: - (utilib bankirning yonini olmoqchi bo'ladi) Zamon Ashrafovich! Shabnamxonning biznes rejasiga ko'ra vinzavodni rekonstruksiya qilish kerak. Buning uchun katta mablag' kerak bo'ladi. Qolaversa, vinzavod yaxshigina daromad keltirib turibdi.

Shabnam: - Zamon Ashrafovich! Meni bu rejalarini tuzishdan maqsadim, odamlarni ish bilan taminlash. Qanchadan-qancha iqtidorli yurtoshlarimiz o'z Vatanini tashlab boshqa yurtlarga ish qidirib ketmoqda. Agar rejalarim amalga oshsa, ularni shu yerda ish bilan taminlagan bo'lamiz. Zavod keltiradigan foyda ham yaxshi bo'ladi.

Zamon Ashrafovich: - (Shabnamga qarata) Shabnam, sizga albatta yordam beramiz. Demak, mablag' topish kerak. O'rol Safarovich, tushundingizmi?

Hokim muovini: - Rejaga kiritib ish boshlaymiz.

Zamon Ashrafovich: - Tabriklayman sizni, Shabnam, ishni boshlaymiz. Bir haftadan keyin menga hisobot berasizlar.

### Sakkizinch Sahna

Rossiya. Moskva. Irinaning ofisi. O'ziga xos anjomlar bilan tuzatilgan ofis.

Irina: - Qodir, senga topshiriq bor! Hozir Slavik bilet olib keladi. Toshkentga uchasan. Aeroportda seni Vadim bilan haligi o'zbek hamkorimiz kutib olishadi, biz olishimiz kerak bo'lgan zavodni qo'lдан chiqib ketish xavfi borga o'xshab qoldi.

Qodir: - Hammasi yaxshi bo'ladi. Zavod qo'lдан chiqmaydi.

Irina: - Ko'ramiz... Sen zavodning qayerda joylashganidan ham xabarling yo'q. Hamkorlarimizni ham bilmaysan. Ko'zing ko'r, qulog'ing kar! Yana hammasi yaxshi bo'ladi deysan...

Qodir: - Hechqisi yo'q. O'zbekistonga borgach bilib olarman.

Irina: - Gapning qisqasi, o'sha hudud mamuriyati o'zgarib, yangi rahbarlar kelibdi. Sheriklarimizning dumini tugishibdi. Demak, o'zbeklar bilan qilinadigan iqtisodiy aloqalarga qonun aralashmoqda. Qonun aralashdimi, daromadning cho'g'i pasayadi.

Tushundingmi?

Qodir: - Tushundim.

Irina: - Tushungan bo'lsang yaxshi... Mana bu zavodning manzili. Mana bu qilinishi kerak bo'lgan ishlar rejasি. Tanishib chiq.

Nega jimsan? Borasanmi?

Qodir: - Boraman, albatta boraman.

Irina: - Faqat aql bilan ish tut. Bu deyman, o'zbeklar ham biznes, tadbirkorlikning sirini bilib olibdilarmi? O'sha zavodni bir o'zbek ayoli olib ishlatmoqchi emish. Tasavvur qil, o'zbek ayoli zavod egasi. Biznesmen!

Qodir: - Buning nimasi kulgili?

Irina: - O'sha ayolni nima qilib bo'lsa ham ko'nglini olish kerak. Yo'lini top! Vadimga ayt. Qurumsoqlik qilmashin. U ayol men taklif qilgan pulni eshitsa, rozi bo'ladi. Bo'pti. Omadingni bersin. To'xta! Yana bir gapim bor!

Qodir: - Nima deysan?

Irina: - To'g'risini ayt, ichingdagini yashirma. Baribir ko'zlarining ayтиб turibdi.

Qodir: - Nimani?

Irina: - Sen o'zgarib qolgansan... Anaving kelib ketgandan beri o'zgargansan.

Qodir: - Gaping shumidi?

Irina: - Xotining kelib, bir balo qilib ketdi seni. Sezib turibman, mendan ... ko'ngling sovigan.

Qodir: - Qo'y sang-chi shu gaplaringni.

Irina: - Men seni yaxshi ko'raman, Qodir. Anavilar shaharning qoq markazida o'zbekcha milliy restoran ochish uchun to'lagan pullaringni tortib olib, o'zingni chalajon qilib tashlab ketganida ham, bir yarim yil kasalxonada davolanib yotganingda ham, xotining emas, mana men turganman yoningda.

Qodir: - O'sha yaramaslar meni sindirishmaganida, allaqachon biznesim yurishib ketardi! Meni davolaganing ularning qo'lidan qutqarib qolganing uchun, mana besh yildirki, sendan bir chaqa ham so'ramadim. Hatto uyimga ham bir tiyin jo'natmadim.

Irina: - Ha, mendan hech narsa so'ramading. Sen go'yoki o'z hayoting uchun menga boj to'lading. Chunki sen... judayam mag'rusras. Qodir, mana shuning uchun ham seni yaxshi ko'raman.

Qodir: - Men ham seni yaxshi ko'raman, Irina. Qilgan yaxshiliklarining evazigagina emas, mendek sinib bo'lgan odamning ko'ngliga nur bera organing uchun ham yaxshi ko'raman.

Irina: - Men senga ishonaman, Qodir! Agar anavi zavod muammosini hal qilsang, hammasi boshqacha bo'ladi. Senga restoranimni beraman. O'zing yurgizasan... Biznesni mendan kam tushunmaysan... Juda katta daromadga ega bo'lasan... Keyin oilangga ham yaxshi bo'ladi. Shuncha yil tortgan azoblariningga chek qo'yiladi.

Qodir: - Xavotir olma, qolgan gapni qaytib kelganimda gaplashamiz.

Irina: - Qodir, ko'nglim sezib turibdi. Sen endi... Qaytib kelmasang kerak...

Qodir: - Qo'y sang-chi, nega unday deysan?

Irina: - Bilmadim, bilmadim. Senga qattiq bog'lanib qolganman. Qaytib kelmasang... men nima qilaman?

Qodir: - Hammasi yaxshi bo'ladi.

Qodir Irinani quchadi. Ular bir zum bir-biriga termulib turishadi.

### To'qqizinchı Sahna

Oydin momoning hovlisi. Yana o'sha manzara. Oydin momo supada o'tiribdi. Nimadir taqillaydi. Oydin momo hushyor tortib qarab qoladi. Atrofga sinchiklab quloq tutadi. Sahnaga xuddi o'g'ri kabi Qodir kirib keladi. U onasining o'zi tomon qarab turganini ko'rib, joyida to'xtab qoladi. Kampir so'niq nigohlari bilan u tomonga qarab turibdi.

Oydin momo: - Hoy kim keldi? Hovlida kim bor? (Qodir to'xtab turgan joyida taxta bo'lib qotib qoladi) - Kim u? (Qodir turgan joyida onasining ko'r bo'lib qolganini sezadi. Ortiga bir-ikki qadam tislanadi)

Shu payt hovli eshigi tomonidan nimadir taraqlaydi. Kimningdir jahl bilan baqirgani eshitiladi. Ътъ Tush oldimga, qani yur, senday bolaning boridan yo'g'i yaxshi, nomard! Ътъ Qodir shoshib qoladi va hovlidagi savat ortiga bekinib oladi. Sahnaga qo'lida tayoq, o'g'li Qudratni oldiga solib Chori bobo kirib keladi. Bobo o'g'liga tayoq o'qtaladi.

Chori bobo: - (O'dag'aylab) Yur! Tez-tez yur! Senday nokas o'g'ilning boridan yo'g'ing yaxshi.

Qudrat: - (Biroz tislanib) Ota, qo'ying, ota! Aytdim-ku, kerak emas deb! Mana! (Qo'lidagi tugun xaltani supaga qarata otadi. Bu Shabnamdan olib ketilgan yelim xaltadagi pul) Ota, endi qutuldimm!

Chori bobo: - (G'azablanib, supada o'tirib nima bo'layotganini anglab-anglamagan Oydin momoga boshi bilan ishora qilib) - Momongdan kechirim so'ra, bola! So'ra kechirim.

Oydin momo: - (Alanglab) Nima gap? Nima bo'ldi. Chori bobo, sizmi? Tinchlikmi?

Chori bobo: - (O'kinib) Tinchlik bo'lsa shu yerga kelarmidim. Qariganimda manavi bo'yning uzilgur sharmanda qilib o'tiribdi-da, Oydin momo! Nimasini aytay. (Bobo supaga o'tiradi. Qudrat hovli o'rtasida so'ppayib, yerga qarab turibdi... Bobo endi o'g'liga qarata) Nega qoqqan qoziqdaysan! Tili zaboning tanglayingga yopishmagan bo'lsa, momongdan kechirim so'ra! Hoy, Qudrat, nega garangsiyan?

Oydin momo: - (Nima gapligini anglab) Qo'ying, Chori bovo, urishmang? Qudratingizda ayb yo'q, ayb menda... Mening bolamda. Qudrat nima qilsin? Bizniyam ahvolimizni tang qilgan mening bolam, olislarda sargardon bolam aybdor.

Qudrat: - (Tutilib) Meni kechiring, momo! Tavba qildim, momo! Pulingiz ham, yeringiz ham kerakmas, momo! (Ko'ziga ham yosh oladi...) Faqat qarg'amang, og'rinnang, momo, tavba qildim! O'sha kundan beri halovatimiz yo'q. Kenja bolam o'rnidan turolmay qoldi. Yosh bolakayning alahsigani yomon bo'larkan! Isitmasi tushmayapti, momo! Qarg'ish bolamni urib ketmasin, momo!

Chori bobo: - (Uf tortib) Oydin momo, bu go'rso'xtani kechiring, momo! Xarom-xarish bilan halolning farqiga bormay qolishgan bular...

Oydin momo: - (Qo'lini siltab) Hay-hay, Chori bovo! Unday demang! Men hech kimni qarg'amadim. Qarg'amayman ham. Mening o'zimni Xudo qarg'ab, Xudo urib qo'yibdi. Yo'qsa toyday tosirlagan bolam it izg'imaydig'an yerkarda eldan chiqib, dinu diyonatdan chiqib gulday xotinini tashlab, g'unchaday qizini xoru zor qilib sanqib, sandiroqlab yurarmidi, Chori bovo! Meni birovni muhokama qilish, birovni qarg'ashga holim bormi, Chori bovo! Qarg'asam men o'zimni qarg'ayman, Chori bobo...

Chori bobo: - (O'ychan...) Unday demang, Oydin momo, unday demang!

Qudrat: - (Supadagi pul solingen yelinxaltani olib Oydin momoning yoniga qo'yadi) Mana, momojon! Kechiring, meni shayton yo'ldan urdi, momo!

Oydin momo: - (Sinchkovlik bilan) Qudrat, Sen ham mening bolamni, Qodirni qarg'ama, Qudrat! (Qudrat cholning yoniga

o'tiradi)

Chori bobo: - (Oydin momoga achinib qarab) Hey, Oydin momo, Oydin momo! Yoshligimizda ne bir azob-uqubatlarni ko'rmaidik-a? Bir burda zog'ora non uchun ishlardik - o'rni o'rib, qirni qirardik.

Oydin momo: - Nimasini aytasiz!

Chori bobo: - Bugun, shu deyman odamlar orasida oqibat ko'tarilayaptimi deyman! Esingizdam, enalarimiz bolaligimizda xirmon boshiga yetaklab borardi. Otalarimiz urushda, biz och. Shunday paytda raisimiz el oqsqoli Orif bovo, joyi jannatda bo'lsein, oxirati obod bo'lib, go'ri nurga to'lsein, xullas, shu Orif rais rahmatli enamga, qishloq ayollariga aytarkan, shu o'zlarining ham, bolalaring ham xirmonga oyoqlaringga nisbatan ikki-uch razmer katta kalish kiyib kelninglar, bolalaring o'zlarining kalishlaringni kiysisin derkan... Sababi katta kalish bilan xirmon oralasang, kalish ichiga don kirib qolarkan... Uyga qaytishayotganda birov tekshirib o'tirmaskan... O'sha kalishlarda qolgan donni kechqurun enalarimiz uyda dasturxonga to'kib, bola-baqraga qurmoch qilib berarkan. Heey, ne-ne zamonalr o'tdi-da. Xudoga shukr, bugun qarang, tinch-xotirjamlik, to'kin-sochinlik... Faqat osonni osti, yengilning ustidan o'tmay ishlash kerak. Ko'nglingizga kelmasinu, mana shu tomorqangiz ham (Qudrat shu payt bezovtalanib otasiga qaraydi...) Bemalol uch-to't ro'zg'orning qozonini qaynatadi.

Oydin momo: - Shunga kuyaman-da... Uyingda imkoning bo'p turib, allaqayerlarda izg'iganing nimasi?

Chori bobo: - (Qudratga qarab) Bizdikiyam shu! Allaqayerlarga yo'rtgani yo'rtgan.

Qudrat: - (Norozi ohangda) Ota... Ota!

Oydin momo: - Ha, endi boladan yolchimasak qiyin ekan... Eldan chiqib qolarkansan!

Chori bobo: - Gapingizda jon bor! Elning duosi yaxshi-da! El suyganni Xudoym ham qo'llaydi. Gap keldi, aytay, o'shanday og'ir qahatchiliklarda eldan duo olgan rahmatli Orif raisning ikki dunyosi obod bo'ldi. Bolalari tagli-tugli. Bir o'g'lini butun mamlakat taniydi. Qahramon bo'ldi. O'zbekiston Qahramoni! Ko'pnинг duosi ko'l deb shuni aytadilar-da...

Oydin momo: - Gap sotib o'tirganimni qarang! Chori bobo, ko'zim shuytib qoldi... Qani, dasturxonga qaranglar...

Chori bobo: - (Xijolatl holatda) Dardini bergen Xudoym shifosini ham beradi. Endi biz qaytsak! (Qudratga qarab) Endi, bu, adashgan bolani kechirdingizmi?

Oydin momo: - Kechirdim. Kechirmay o'ldimmi?

Qudrat: - Rahmat, momo, rahmat.

Chori bobo: - (Duoga qo'l ohib) Omin, Ollohoi o'zi asrasin. Qodir bolangiz ham eson-omon kelib, Sizni bag'riga olsin, suyanch bo'lsein! Ollohu Akbar.

Oydin momo: - (Fotiha o'qib) Aytganingiz kelsin!

Sahnaga yugirgilab Shabnam kirib keladi. Xursand-xushchaqchaq... Kampirni borib quchadi...

Shabnam: - (Hovliqib) - Ena, enajon! Jonim enam!

Kampir: - (Hayron holatda) Ha... Nima bo'ldi. Nima bo'ldi, qizim.

Shabnam: - Ena, enajon! Enajonim, zo'r ish bo'ldi. Kredit oldim. Zavod o'zimizda qoladigan bo'ldi. Keyin haligi to'quv dastgohini ham ishlatamiz. Qishloq ayollari ishli bo'ladi, ena! Zavodga yoshlarni jaib etamiz. Enajon, hali ko'rasiz, ko'zingizni ham davolataman. Yaxshi do'xtirlarga olib borib ko'rsataman, ena!

Momo: - (Shabnamni erkabal) Aylanay, ona qizim, baraka top. Mening sendan, nabiram Dildoramdan boshqa suyanchig'im qolmagan. Shular el-yurt koriga yarasa bas... Hoy qizim (Shabnamga qarata) Nevaramdan xabar bormi?

Shabnam: - Nabirangiz Toshkentda. Musobaqaga qatnashayapti. Enajon, kechiring, sizga aytmagandim. Xavotirlanasiz deb o'ylagandim, ena. Butun qishloq kuzatib turibdi, ena. Xudo xohlasa hammasi yaxshi bo'ladi, enajon!.

O'ninchi Sahn

Tun mahali. Qurong'ilik. Supada Shabnam televizor ko'rib o'tiribdi. Televizorda sport o'yinlaridan lavha berilayapti. Hovli eshigi taqillaydi.

Shabnam: - Kim u? Kim?

Tashqaridagi ovoz: - (Qudratning ovozi) Menman, boybicha, eshikni oching!

Shabnam: - Allamahalda nima qilayapsiz? Yana nima kerak sizga?

Qudratning ovozi: - Oching-e, boybicha, oching, gap bor!

(Eshik battar taqillaydi. Shabnam supa tomonga qarab kampir uyg'onib qolmasin deb xavotirlanib qaraydi.)

Shabnam: - Hozir.

Qudrat: - Ass... Ass... Assalom, boybicha!

Shabnam: - Tinchlikmi, nega buncha pishnaysiz?

Qudrat: - Pishnaymanmi, kishnaymanmi, sizga zo'r yangilik bor ... Tashqariga yuring.

Shabnam: - Qayga boramiz? Hozir televizor ko'rib o'tiribman. Bir ozdan so'ng musobaqani ko'rsatishadi.

Qudrat: - Musobaqadan ko'ra zo'r yangilik bor.

Noiloj qolgan Shabnam unga ergashadi. Ular Qudratning hovlisiga o'tishadi. Nuragan devor.

Qudrat: - Ana, kechadan beri somonxonada o'tiribdi. Ikki ko'zi hovlingizga qadalgan. Oxiri, Shabnamni chaqirib kelng, dedi.

Shabnam nuragan devorga suyanib turgan qora sharpaga qaraydi. O'sha yoqqa yuradi. Keyin birdan to'xtab qoladi. Ortiga tislanaadi. Og'ir musiqa. Haligi sharpa ham o'rnidan turadi.

Shabnam: - (Ohista) Keldingizmi, Qodir aka!..

Qodir: - (Shabnamga qarab yurib) Shabnam! Shabnam!... Meni kechir... Men nomardni kechir... Mening yuzim yo'q, yuzim yo'q, Shabnam! Enamning ko'zini ko'r, qizimni yetim qilgan, seni xo'rigan daydiman, Shabnam.

Shabnam: - (Yig'lab) Qodir aka, unday demang! Men Sizni qaytishingizni bilardim. Siz o'zingizni o'zingiz aybladingiz, o'zingizni o'zingiz kechirmadingiz. Lekin men Sizni bilardim...

Qodir: - (O'kinch bilan Shabnamga qarab turadi. Sahna nimqorong'usida ikki sharpa bir-biriga qarab turibdi) - Shabnam, men o'zimni kechirolmayman! Men endi hech kimga kerakmasman, Shabnam! Ha, hatto Senga ham! Qizimizga ham! Onamga ham!

Ha, hatto o'zimga o'zim kerakmasman. Men hayotni boy berdim.

Shabnam: - (Unga yaqinlashib) Yo'q... Yo'q! Siz yana o'zingizga o'zingiz hukm o'qiyapsiz. Siz, Siz menga, oilamizga keraksiz, Qodir aka! Men hammasini tushunaman, Qodir aka! Sizning niyattingiz, maqsadning yaxshi edi, biroq, maqsadga borar yo'lida adashdingiz. Buni tuzatsa bo'ladi. Men Sizni sog'inganman, Qodir aka... (Yerga tizzalab cho'kib o'tirib oladi... Uvvos tutib

yig'laydi. Qodir ham kelib uning qarshisida tizzalab o'tirib oladi va ular shu holatda bir-birini quchishadi.)

Qodir: - (Titrab) Meni kechirdingmi, Shabnam?

Shabnam: - (Titrab) - Unday demang, Qodir aka! Unday demang. Siz yaxshi odamsiz, Qodir aka!

Qodir: - (O'kinch va hayajonli holda) Sen mening zimiston dunyomni yoritding, Shabnam!

Shabnam: - (Erkalanib) Bu dunyoda har bir odamning quyoshi bo'ladimi?

Qodir: - (Uni quchib) Ha... Har bir odamning o'z quyoshi bor! Mening quyoshim Sen! Mening quyoshim uyg'ondi, Shabnam! Uni Sen uyg'otding.

Musiqa yangraydi. Shu payt sahnaga shataloq otib, shaytonlagan holda, qo'llarini havoga silkitib, baqirib-chaqirib Qudrat kirib keladi. Shabnam bilan Qodir o'rnidan turib, hayrat bilan bir-biriga suyanib turishadi.

Qudrat: - (Baqirib xursand va hushchaqchaq holda) Oh-ho-hay! Champion bo'lidi! Yashasin... Qoyil... Champion bo'lidi.

Qizlaring... Sizning qizingiz Dildora champion bo'ldi!.. Nega qoqqan qozikday turibsizlar! Dildora champion bo'ldi... Ana, televizorni ko'ringlar! Yashasin Dildora!..

Qodir bilan Shabnam kutilmagan bu xabardan joyida bir lahza serrayib turishadi-da, majolsizlanib devorga suyanib o'tirib qolishadi.

Shabnam: - Dadasi, qizingiz champion bo'ldi!... Endi armonim yo'q, Kodir aka! Xudoga shukur, o'zingiz bizga egalik qiling, qizingizga, onangizga, oilangizga ega bo'ling, Qodir aka!..

Qudrat yana hushchaqchaq holda sahnadan chiqib ketadi. Ular yana serrayib, bir-biriga qarab turishadi. Shu mahal yugurgancha sahnaga Qudrat Oydin momo bilan kirib kelishadi.

Momo: - (Qoqinib-surinib) Bolam!.. Keldingmi, bolam!..

Qodir: - Enajon... Meni kechiring, ena...

Qodir so'qir enasining ko'ksiga bosh qo'yib yig'laydi.

### O'n Birinchi Sahna

Yasanib kiyinib olgan Shabnam, Qodir, Oydin momo, Qudrat, Chori bobolar yangi qurilgan dastgoh oldida turishibdi. Hammaning kayfiyati ko'tarinki. Hamma qarsak chaladi.

Chori bobo: - Qoyilman, qizim, baraka top! Anavi ipak o'ramini chapdag'i g'altakka bog'lasang yaxshi bo'ladi, dastgohning o'qini ozroq pastga tushiringlar. Ana shunday. Birinchi yo'lidan qizil ipni qo'yinglar. Ha, yashavor!

Shabnam: - (Zavqlanib) Bu deyman, dastgohni ishlatish haliyam yodingizda ekan-da, Chori bobo!

Chori bobo: - Rahmatli bobomning oldida pildirab yurardim-da. O'shanda olti-etti yoshli bola edim. Qarang, baribir yodimda qolibdi.

Shu mahal sahnaga ust-boshiga sport kiyimi kiyib olgan Dildora kirib keladi. U yugurib kelib onasining bo'ynidan quchib oladi. Ona yig'lab qizini bag'rige oladi.

Dildora: - (Hayajonda) - Oyijon! Sizni sog'indim, oyijon

Shabnam: - (Ko'z yosh to'kib) Men ham! Tabriklayman qizim!

Dildora: - Rahmat, oyijon! (Yana onasining bo'yniga osiladi)

Shu payt Dildora chopib borib kampirni ham quchadi

Dildora: - Momojon, jonom momom! Sizni yaxshi ko'raman, momo!

Momo: - (Dildoraning yuz-ko'zlaridan tinimsiz o'pib) - Bolajonim, Dildora bolam! Keldingmi? Keldingmi, bolam!

Shu payt sahnadagi Qodir o'ng'aysizlanadi, o'z hayajonini yashirolmaydi. Ko'ziga yosh kelib, qizi tomon yuradi. Qizi ham otasi tomon qarab tosh qotib turadi. So'ng bor ovozda chinqirib yuboradi.

Dildora: - Otajoonim! Dildora yugurib borib o'zini otasining bag'rige otadi. Oraga jimlik cho'kadi. Zamon ham bir oz sukul saqlaydi. So'ng.)

Zamon Ashrafovich: - (Bag'rini ochib) Qodirjon, qo'yvoring! Qizimni men ham qutlay! (Otasi bag'ridan bazo'r bo'shagan Dildorani bag'rige bosadi.) Tabriklayman, Dildora! (So'ng sahnaga qarata) Xo'sh, hammasi tayyormi? Boshlaymizmi? Qani, ena, bitta duo kiling!

Oydin momo: - Umrlaringdan baraka topinglar! Rizqi nasibalaring mo'l bo'lsin. Boshlagan ishlaringni rohatini ko'ringlar. Bu to'quv dastgohi mening ota-bobolarimdan qolgan. Vaqt(soati kelib, necha yildan beri yorug'lik kutib yotgan dastgohlar ishlay boshlasa, ajlodlar ruhi ham shod bo'ladi.

Zamon Ashrafovich: - (Qatiyat va ishonch bilan zavqlanib) Rahmat, Shabnamxon! Rahmat, hammangizga tashakkur! Ezgulik yo'lida qo'yilgan qadam baribir xayrli bo'ladi! O'zingiz ko'rib turibsiz! To'g'ri yo'l tutashgan manzil charog'on bo'ladi! Oddiy, o'zbekona, sodda va sof falsafaning nechog'lik hayotiyligiga sizlar, butun qishloq, tuman ahli guvoh bo'lib turibdi. Xalqimizda bir asl gap bor: вЂњBirniki mingga, mingniki tumangab ёк деган. Bu gap bejiz aytilmaganiga bugun guvohsizlar. Hayotdagi isbotini ko'rib turibmiz.

Shu yorug' niyat, shu yorug' o'y bilan ozod Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligiga xizmat qilayapsiz.

Vatan! Vatan aslida mana shu yerdan, ha, mana shu uy, mana shu ostonadan boshlanadi. Xalqning jijsligi, xalqning ahilligi esa mana siz kabi sodda va samimiy insonlarning hamkorligi, bir yoqadan bosh chiqarib ezgu maqsad yo'lida birdam va bardam birlashishidan boshlanadi.

Shunday ekan, shu Vatan ertasi yo'lida qilingan har bir ishning o'zi bugungi kunda chin manodagi qaxramonlikdir. Vatan bog'ida bir tup ko'chat ekkan inson to'g'ri manoda qahramondir. Vatanning mustahkam imorati uchun sidqidildan bir g'isht qo'yan inson ham qahramondir. Barcha buyuk ishlar ana shunday qahramonliklar evaziga amalga oshadi. Ezgulikning esa katta-kichigi, erta-kechi bo'lmaydi!

Bizga hech kim hech qachon tashqaridan kelib, biz xohlaganimizchalik hech narsani yaratib, bunyod etib bermaydi. Biz nimaga erishsak o'z kuchimiz bilan erishamiz. Aql-idrokimiz, o'z mehnatimiz evaziga erishamiz. Chunki Vatan biz bilan! Biz o'z uyimizni obod qilsak, demak Vatanimizni obod qilgan bo'lamiz.

Yurtimizda tadbirdorlikka keng yo'l berilganligi esa, ulkan tarixiy buniyodkorlik va taraqqiyotga har birimizning daxldor ekanligimizni ko'rsatadi. Ulug' sohibqiron bobomizning bir gapi bor: вЂњAzmi qatiy, tadbirdor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirdsiz va loqayd kishidan afzaldirб ёк.

Shunday haqiqatni anglagan har bir kishining yuragida Yurtboshimizning вЂњBiz hech kimdan kam emasmiz. Biz hech kimdan

This is not registered version of TotalDocConverter  
kam bo'maymagan degan qaydini, bu davomida sado berib turadi.

Rahmat, Shabnamxon! Hammangizga tashakkur! Bugun sizlar buniyodkor xalqning buniyodkor vakillari sifatida o'zingizni namoyon qildingiz! Rahmat!